

## AYOLLIK BORLIQMI?

Nazirova Shohida

Andijon Abu Ali Ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi Texnikumi

"Ayollik-bu zaiflik emas,yengillik. Noziklik emas balki,ichki qudrat.Yuzaki go 'zallik emas ,har lahzani qalb ila yashamoqlik san 'atidir!"

**Annotatsiya:** "Ayollik borliqmi?" nomli maqolada ayolning o'ziga xos tabiat, jamiyatdagi o'rni, ayollikni anglash va bu tushunchaning zamonaviy dunyodagi ahamiyati haqida so'z yuritiladi. Maqolada ayollikning fiziologik, psixologik va ijtimoiy jihatlari tahlil qilinadi. Ayollikning shaxsiy va ijtimoiy identitet shakllanishida qanday o'rin tutishini o'rGANISH, ayolning hayotidagi turli rollarni, xususan ona, xotin va jamiyatdagi faoliyatini baholash asosiy maqsad qilib qo'yilgan. Shuningdek, ayollik borligining qadriyatlar, urf-odatlar va zamonaviy taraqqiyot nuqtai nazaridan qanday shakllanishi muhokama qilinadi.

**Kalit so'zlar:** ayollik, identitet, jamiyat, psixologiya, ona, xotin, qadriyatlar, ijtimoiy rol, zamonaviy dunyo.

Ayol deganda, shubhasiz ko'z o'ngimizda hayotning turli so'qmoqlarida ,mashaqqat-u zahmatli yo'llarida sira o'zini yo'qotib qo'ymaydigan ,har gal yiqilganida yanada kuchli ,yanada matonatli bo'lib boruvchi sadoqat,mehr-muhabbat va sabr timsoli gavdalanadi. U bahor kabi hayot baxsh etuvchi, qalblarga iliqlik va yorug'lik olib kirguvchi mehr va nafosat timsolidir. Darhaqiqat, ayol bahor kabi yangilanish va yashnash timsoli, u daryo kabi jo'shqin va hayotbaxsh, qalbi esa osmon kabi musaffo va sirli. Ba'zan shabbodadek mayin, ba'zan esa to'lqindek qudratli. Ha ayol qalbi Onaning bag'riday mehrli...

Yorning nigohidek sirli...

Singilning quvonchidek beg'ubor...

Do'sting yelkasidek ishonchli...

Ayol bo'lmasa olam rangsiz, yuraklar esa his -tuyg'usiz qolardi .

Hech o'ylab ko'rganmisiz "Ayollik ilmi" yoki "Ayollik fitrati" haqida?

Keling shu mavzuda biroz bo'lsada gaplashamiz.

Bilasizmi bu shunchaki tushuncha emas, balki hayotning eng nozik va qudratli haqiqatlaridan biridir.

Ayollik fitrati- ba'zida sof va sokin, ammo zarur vaqtida ummon kabi beshavqat va qudratli. Bu tabiatdan berilgan mehr, sadoqat, sabr, mulohaza va donolikning o'ziga hos uyg'unligi.

Ayollik ilmi esa - ana o'sha fitratni anglash, qadirlash va uni hayotning har javhasida uyg'un aks ettirishdir. Ayollik ilmi- shunchaki jinsiylik emas balki ichki bir olam, o'ziga hos quvvat. Jamiyatga ziyo, insoniyatga hayotbaxsh etuvchi ilohiy manba. Shu bois ayollikni anglash va qadirlash ,nafaqat ayol balki butun jamiyat uchun muhim ilm.

Qalbida sevgi quyoshi atrofga mehr va iliqlik taratib turuvchi baxtga magnitlarim keling, o'ziga g'amxo'rlik qilish madaniyatini hamjihatlikda shakillantiramiz va ayollik mohiyatini anglashda quyidagi amaliy tavsiyalarni birgalikda ko'rib chiqamiz.

- Tabiat qo'ynida ko'proq vaqt o'tkazing. Daraxtlar, tog'lar, yaylovlar, suv bo'yi bo'lmaganda maysazorda oyoqyalang dam oling. Chunki biz tuproqdan yaralganmiz. Qanchalik tabiatga, ona yerga yaqin bo'lsak shuncha energiyaga to'lamiz.

- Ayollarga xos nafislik va latofatni unutmay o'zingizga g'amxo'rlik qiling - yoga, raqs yoki kechki sayr kabi amaliyotlarni qo'llang.

- Jismoniy salomatlik va go'zallikni asrang. To'g'ri ovqatlanish, jismoniy faollik va to'g'ri uyqu ayollik nurini saqlashda muhim rol o'ynaydi.

- Doimiy rivojlanishda bo'ling, ichki "Men"ingiz doimo sizdan yangi informatsiyalar kutadi. U bo'sh qolib ketishi oqibatida esa depressiyalar, o'z-o'zidan qoniqmasliklar kelib chiqadi.

- Har bir shaxs o'ziga xos olam ekanligini unutmang. O'zingizni taqqoslash yoki majburlash o'rniga qiziqishlaringizni e'tiborga oling. Mustaqillik, mas'uliyat, mehribonlik va shukronalik hissini o'zingizda shakllantiring.

Ayollik-bu tug'ma sovg'a lekin uni rivojlantirish, asrab-avaylash har ayolning o'z qo'lida. Bizning yutuqlarimiz-jamiyat yutug'idir. Muvaffaqiyatlari ayol bo'lish uchun esa ongli harakat, bilim va ichki uyg'unlik kerak.

Har bir ayol o'zining tabiiy go'zalligini ichki qudratini ochib berish orqali nafaqat o'z hayotini balki atrofdagilar hayotini ham yorqin qila oladi. Unutmang siz borliqsiz!